

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

IBROHIMOV Azizbek Ismonjon o'g'li

Namangan davlat universiteti

(vokal san'ati: an'anaviy xonandalik) yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7976992>

SHARQ XALQLARI MUSIQA TARIXI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sharq xalqlari musiqa tarixi va Sharq an'anaviy merosi, Sharq xalqlari an'anaviy musiqasi, ma'naviy merosi haqida yozma manbaalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: san'at, madaniyat, turizm, xalq, sharq, mamlakat, milliy, xonanda, sozanda.

ИБРАГИМОВ Азизбек Исмоиљон оглы

Наманганский государственный университет

(вокальное искусство: традиционное пение) направление

ИСТОРИЯ МУЗЫКИ НАРОДОВ ВОСТОКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется история музыки народов Востока и Восточное традиционное наследие, традиционная музыка народов Востока, духовное наследие на основе письменных источников.

Ключевые слова: искусство, культура, туризм, народ, Восток, страна, национальный, певец, музыка.

IBRAHIMOV Azizbek Ismonjan

Namangan State University

(vocal art: traditional singing) direction

MUSIC HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST

ANNOTATION

This article analyzes the peoples of the east on the basis of written sources about the history of music and the traditional heritage of the East, the traditional music of the peoples of the East, their spiritual heritage.

Keywords: art, culture, tourism, people, east, Country, national, singer, singer.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Ya'ni Abu Nasr Muhammad Farobiyning (873 – 950) “Musiqa haqida katta kitob” (Kitob al-musiqa al-kabir), haqida kitob yozdilar. Ali Ibn Sinoning (980 – 1037) yillar “Davolash kitobi” (Kitob um-shifo) qomusidagi Musiqa haqida risola yozdilar.

Al Xorazmiyning X asrda” Bilimlar kaliti” haqidagi kitobi, Safiuddin Al Urmaviyning (1216 – 1294) yillarda “Oliyjanoblik” haqidagi kitobi yoki “Sharafiy kitobi” haqida kitoblar yozdilar. Abdurahmon Jomiyning 1414 – 1492 yillardagi “Musiqa haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'u asboblari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Safiuddin Al Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi Urmiya shaxrida tug'ilgan, Ozarbayjonlik mashhur xonanda, uning eng katta yutug'I “Modius” ladning mukammal yo'nalishlarini ishlab chiqqanligidir. Ibn zaylning VI asr “Musiqa haqida to'liq kitobi” va “kitob ul – kabi fil – musiqiy” haqidagi kitoblari uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni, musiqada ladlarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abdulqodir Marog'iy XV-asr, Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. Musiqa ilmida ohanglar to'plami (Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy) risolasida musiqa haqidagi ta'limotni kamoncha yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Husayn XV-asr asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli musiqa asbobi dutor haqida ma'lumot bergan. Qutbidin ash-Sheroziy (1236 – 1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur (sato) haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozing musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblangan.

Al Forobiy IX-asrda mohir ijrochi sifatida ham tanilgan. U damli cholg'u nay asbobini, torli mizrobli cholg'u tanbur va ud musiqa asboblarini juda zo'r mahorat bilan ijro etganlar. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'u asboblarining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u “Jangu jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo'shiqlarinikuylashda chalinadigan cholg'ular bor” deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida xalq cholg'ulari Iyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg'ular izchil va batafsil ta'riflanadi. Lyutnya torli mizrobli cholg'usi o'sha davrda eng keng tarqalgan bo'lib, o'ziga xos mizrob (Chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura ladalar joylashgan.

IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u asbobli ko'pgina Sharq mamlakatlarida Kavkazorti xaqqlari va Tojikiston, O'zbekiston cholg'uchiligida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.” Musiqa xaqida katta kitob” da Forobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tanbur ya'ni (dilni tirnash) ud cholg'usiga yaqin turadigan cholg'udir deb ta'rif berganlar.

Sharq xalqlari musiqa madaniyati va turli sharq davlatlari madaniyati alohida o'rin egallaydi. Shu qatori O'zbekistonning Samarqand shahrida “Sharq taronalari” XII salqaro musiqa festivali doirasida “Sharq xalqlari an'anaviy musiqa san'atini rivojlantirish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdadi.

Anjumanning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri B. Sayfullayev “Sharq taronalari” musiqa festivali kunlari an'anaviy tarzda o'tkaziladigan ilmiy anjumanlar Sharq xalqlari musiqa san'ati tarixi, o'ziga xos an'analari va bugungi istiqbollarni o'rganish, targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlangan. Bu kanferensiyada Sharq musiqasining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq dolzarb muammolar, “ustoz-shogird” an'analari qadimiy musiqa san'atini asrab-avaylash masalalari muhokama qilindi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya, Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Fransiya, Norvegiya, Moldova davlatlari hamda yurtimizdan 30 ga yaqin san'atshunos va tarixchi olimlar, bastakorlar, ishtirok etdilar.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali doirasida an’anaviy tarzda o’tkazib kelinayotgan bu kabi kanferensiyalar, yig’ilishlar milliy musiqa san’atimizning tarixini o’rganish, ushbu yo’nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan mahalliy va xorijlik olimlar bilan o’zaro fikr, tajriba almashish uchun qulay imkoniyat yo’llari ochildi desak bejiz bo’lmaydi.

Mamlakatimizga kelgan nufuzli san’atshunos olimlar va tadqiqotchilarning ma’ruzalarini tinglandi. Shu bois, Moldaviyalik Fedor Zenetning gagauz xalqning milliy bayramlari va yomg’ir chaqirish marosimlarida ijro etiladigan qo’shiqlar, amerikalik olim Konni Zaoning mo’g’ullarning cho’l qo’shiqlari, qozog’istonlik Aygul Baybekning qozoq an’anaviy ijrochiligi qatnashchilariga manzur bo’ldi. Shuningdek, o’zbekistonlik olimlarning o’zbek an’anaviy musiqasi rivojlanish bosqichlari, Husayniy maqom yo’llarining o’ziga xosligi, Buxoro shashmaqomi to’g’risidagi ilmiy qarashlari ham katta qiziqish bilan qabul qilindi.

Sharq xalqlari musia tarixi Yaqin va O’rta sharq-hindiston, Pokiston, Turkiya, Afg’oniston, eron va Arab mamlakatlari xalqlariga tegishli bo’lgan tarixiy va musiqiy ma’lumotlarni qamrab oladi. Ulardan xar biri asrlar davomida o’z madaniy an’analirining shakllanishi va taraqqiyoti bilan bog’liq rivojlanish bosqichlariga egadir.

Bizgacha yetib kelgan shakllarida esa har bir xalqning o’ziga xos folklore janrlari, betakror mumtoz musiqaiy namunalar yuzaga kelganligining guvohi bo’lamiz. Ayniqsa kasbiy musiqaning mukammal va murakkab shaklda tarkib topganligi maqomlar tizimining o’zida namoyon bo’lib turubdi. O’zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa ijodiyoti bilan mushatarakligi, umumiy ildizlari, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar va ma’rifatparvar allomalar tomonidan chuqur e’tirof etilgan.

Bu haqda jadidchili harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat o’zining “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida quyidagilarni yozadi: “Bizning adabiyotimiz sharq-islom adabiyotiga qanday bog’langan, qanday munosabatli esa, musiqamiz ham sharq islom musiqasi bilan shunday bog’langan, shunday munosabatdadir” deb fikr yuritganlar. O’ra va yaqin sharq xalqlarining tarixiy madaniy aloqalari jozibador sharq ohanglarining tarovati va ta’sir kuchi hamda, o’zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa an’analari bilan mushatarligini nazarda tutugan holda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagilarni ta’kidlaganlar:

“Musiqasadorlari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi, deb fikr yuritganlar. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta’kidlaganlarki, “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi deb fikr yuritganlar. Sharq mamlakatlarining musiqa san’ati madaniyatini o’rganish albatta, bu xalqlarning og’zaki va yozma manbaalari, musiqa dunyosini anglash bilan bog’liqdir. Musiqasadorlari esa musiqachilar (xonanda va sozandalar), musiqiy cholg’ular musiqiy janr va namunalar hamda ijrochilik an’analari bilan iboratdir. Sharq xalqlari musiqa tarixi fani shu bilan birga har bir mamlakatning geografik o’rni, hududi, aholisi, milliy an’analari, e’tiqodi, madaniyati va albatta musiqa san’ati yo’nalishlarini o’rganish o’z ichiga oladi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Iroda Ganiyeva “Sharq xalqlari musiqa tarixi” Toshkent – 2021yil.
2. O’zbekiston respublikasi Hukumat portal 2001-2023yil UZINFOCOM.
3. Matyoqubov o. Forobiy sharq musiqasi asoslari haqida Toshkent – 1990 yil.
4. Odilov A. O’zbek xalq cholg’u asoblarida ijrochilik tarixi. Toshkent – 1995yil.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz